"PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY AND TRANSLATION STUDIES"

international scientific and practical conference

November 12-13, 2025



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

2025-yil, 12-13-noyabr

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO’I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled

“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY AND TRANSLATION STUDIES”

November 12-13, 2025

Tashkent – 2025

UO‘K 845.711.05
KBK 133.585.3 “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 918 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV
akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhriddin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoekli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboyev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimani o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrdagi 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 845.711.05
KBK 133.585.3 Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic “Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 918 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:
Shuhrat SIROJIDDINOV
Academician
Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Editorial Board:

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhriddin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Swetzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboyev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo’i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

ABDURASHID NURMURODOV IJODIDA PSIXOLOGIZM VA INSON TAQDIRI TALQINI

Dilovar Nurmuradova,
ToshDO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Zamonaviy o‘zbek nasrining yetuk vakili Abdurashid Nurmurodov ijodi psixologik tahlilning chuqurligi va inson taqdiriga bo‘lgan yuksak e’tibori bilan adabiyotimizda alohida o‘rin egallaydi. Ushbu maqolada adibning “Urush bevalari”, “Qonli yo‘rgaklar” va “Qon hidi” asarlari misolida psixologizm tamoyillari va inson taqdiri talqini ilmiy-adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Yozuvchi asarlarida qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblar va ekstremal vaziyatlardagi holatlari ochib beriladi. Urush va insoniy fojia fonida yaratilgan obrazlarning psixologik ishonchliligi hamda dramatik konfliktlarning talqini o‘rganiladi. Adibning obraz yaratish mahorati, badiiy til va uslubning o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, realizm tamoyillariga tayanish usullari yoritib beriladi. Shaxs va jamiyat, inson va taqdirning murosasiz to‘qnashuvi Nurmurodov ijodining bosh g‘oyaviy-badiiy o‘qini tashkil etishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: *Abdurashid Nurmurodov, psixologizm, inson taqdiri, ichki kechinmalar, badiiy konflikt, urush fojiasi, o‘zbek nasri.*

Abstract. The works of Abdurashid Nurmurodov, a distinguished representative of modern Uzbek prose, hold a unique place in our literature due to their profound psychological analysis and intense focus on human destiny. This article analyzes the principles of psychologism and the interpretation of human fate from a scholarly and literary perspective, focusing on the author’s works such as “Urush bevalari”, “Qonli yo‘rgaklar”, and “Qon hidi. The author masterfully reveals the inner experiences, mental anguish, and emotional states of characters in extreme situations. The study examines the psychological authenticity of characters created against the backdrop of war and human tragedy, alongside the interpretation of dramatic conflicts. Furthermore, the article highlights the author’s skill in character development, the unique aspects of his artistic language and style, and his reliance on the principles of realism. It is argued that the uncompromising clash between the individual and society, as well as between man and fate, constitutes the primary ideological and artistic core of Nurmurodov’s creative work.

Keywords: *Abdurashid Nurmurodov, psychologism, human destiny, inner experiences, artistic conflict, tragedy of war, Uzbek prose.*

Kirish

O‘zbek adabiyoti xalqning ma’naviy hayotini, uning tarixiy xotirasi va ruhiy kechinmalarini aks ettiruvchi muhim madaniy sohalardan biri hisoblanadi. Adabiyot insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, jamiyatdagi muammolar hamda insoniy munosabatlarni badiiy tarzda yoritadi. Bu borada adabiyotshunosligimizning ko‘zga ko‘ringan vakillari Naim Karimov, Baxtiyor Nazarov, Umarali Normatov, Qozoqboy Yo‘ldoshev kabi olimlar o‘zbek nasrida insonning ichki dunyosini tasvirlash an’anasini keng tadqiq etganlar[1]. Ularning ilmiy merosiga suyanib, zamonaviy o‘zbek nasrini o‘rganish bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi.

Ayniqsa, XX asr oxiri va XXI asr boshlari o‘zbek nasrida inson ruhiyatini chuqur tahlil qilish, uning taqdiridagi fojiaviy va dramatik nuqtalarni ko‘rsatib berish yetakchi o‘rin tuta boshladi. Bu davr nasri o‘zidan oldingi mavzuviy va uslubiy chegaralarni kengaytirdi: urush, mahbuslik, ijtimoiy zo‘ravonlik, ma’naviy inqiroz mavzulari yangi badiiy qiyofa kasb etdi. Ana shunday murakkab ruhiy jarayonlarni qalamga olgan, o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos uslubiga ega bo‘lgan ijodkorlardan biri Abdurashid Nurmurodovdir[2]. U inson qalbining eng nozik tovlanishlarini, shafqatsiz tarixiy voqealar og‘ushida qolib ketgan oddiy insonlarning fojiasini qog‘ozga tushirdi.

[1] Karimov N. “O‘zbek adabiyoti tarixi” (6 tomlik). – Toshkent: Fan, 2006. 1-jild, 14–28-betlar.

[2] Abdurashid Nurmurodov – 1955-yilda Samarqand viloyatida tug‘ilgan o‘zbek yozuvchisi. Uning ijodi asosan inson ruhiyati, urush fojialari va milliy qadriyatlar talqiniga bag‘ishlangan. Qarang: Ziyouz.com portali, O‘zbek nasri bo‘limi, “Abdurashid Nurmurodov” maqolasi.

Mazkur tadqiqot ishining asosiy maqsadi – Abdurashid Nurmurodov asarlarining badiiy xususiyatlarini, xususan, yozuvchi ijodidagi psixologizm tamoyillarini va inson taqdiri talqinini o‘rganishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, Nurmurodov ijodi adabiyotshunosligimizda hali to‘liq o‘rganilmagan bo‘lib, uning asarlari kompleks tahlilga muhtoj. Metodologik jihatdan maqolada tarixiy-qiyosiy, tizimli va psixologik tahlil usullaridan foydalanildi. Asarlarda inson hayotining turli qirralari, jamiyatdagi muammolar hamda ma’naviy qadriyatlar chuqur badiiy talqin qilinadi. Adib o‘z ijodida hayotiy voqealarni realistik tasvirlashga, ekstremal vaziyatlarda inson ruhiy holatini chuqur ochib berishga alohida e’tibor qaratadi[1].

Tadqiqotda Abdurashid Nurmurodovning hikoyalari (“Odam bo‘lish qiyin”, “Bedana”, “Toshpo‘lat tajang nima deydiki...“, “Ko‘hna dunyo”), qissalari (“Urush bevalari”, “Bolalikka otilgan o‘q”, “Tazarru”) hamda romanlari (“Qonli yo‘rgaklar”, “Qon hidi”, “Nurafshon yog‘du”, “Tutash taqdirlar”) asosiy tahlil ob’ekti bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu asarlarning barchasi yozuvchining psixologik tasvirga bo‘lgan qodirligini, insoniy tragediyani badiiy anglashning noyob usullarini namoyon etadi.

Asosiy qism

Abdurashid Nurmurodov 1955-yili Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumanida tug‘ilgan. Nizomiy nomidagi Davlat Pedagogika universitetining filologiya fakultetini tugatgan adib dastlab maktabda o‘qituvchi, keyinchalik matbuot va nashriyot sohasida faoliyat olib bordi. Uning adabiyotga kirib kelishi 1980-yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri kelib, bu davrda u bir nechta hikoyalar to‘plami bilan adabiy jamoatchilikka o‘zini tanita boshladi. Yozuvchi qalamiga mansub “Urush bevalari”, “Tutash taqdirlar”, “Qonli yo‘rgaklar”, “Bolalikka otilgan o‘q”, “Tazarru”, “Qon hidi”, “Nurafshon yog‘du” kabi roman va qissalar, “Odam bo‘lish qiyin”, “Bedana”, “Toshpo‘lat tajang nima deydiki...“, “Ko‘hna dunyo” singari hikoyalar kitobxonlar va adabiyotshunoslar tomonidan qizg‘in kutib olingan.

Yozuvchi ijodining bosh mavzusi – inson va uning murakkab qismati. Uning asarlari inson hayotini real tasvirlash, jamiyatdagi muammolarni yoritish hamda ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilish bilan ajralib turadi. Adib asarlarida ko‘tarilgan mavzular ko‘pincha global xarakterga ega bo‘lib, urush va tinchlik, insoniylik va yovuzlik, sadoqat va xiyonat kabi abadiy tushunchalarni o‘z ichiga oladi. B.Nazarov ta’kidlaganidek, “zamonaviy o‘zbek nasrining eng muhim xususiyatlaridan biri – insoniy xarakter muammosiga e’tiborning kuchayishi, qahramonning ichki dunyosini ochishga intilish”dir[2]. Nurmurodov ijodi aynan mana shu tendensiyaning yorqin ifodasi hisoblanadi.

Adibning ijodiy yo‘lini uchta davrga bo‘lish mumkin: birinchi davr (1985–1995) – hikoyachilik tajribasining shakllanishi, milliy turmush tarzining realistik tasviri; ikkinchi davr (1995–2010) – yirik epik shakllarning, birinchi navbatda urush mavzusining o‘zlashtirilishi; uchinchi davr (2010–hozir) – ijodiy yetuklik, psixologik tahlilning yangi bosqichi. Ushbu davrlar kesimida yozuvchining psixologizm uslubi tobora chuqurlashib, murakkablashib borgan. U oddiy hayotiy voqealarni tasvirlaganda ham, global tarixiy hodisalar – Ikkinchi jahon urushi, Afg‘on urushi fojialarini yoritganda ham – inson ruhiyatini markazga qo‘yishdan aslo chekinmagan[3].

Nurmurodov nasri o‘zining epik kenglik va psixologik chuqurlik uyg‘unligi bilan ajralib turadi. U qisqa hikoyalarida ham, ko‘p sahifalik romanlarida ham bir xil mahorat bilan insoniy taqdir va kechinmalarni ochib beradi. Adibning “Odam bo‘lish qiyin” hikoyasida, masalan, oddiy bir ishchi xarakter orqali zamonaviy shahar hayotidagi ma’naviy bo‘shliq, insoniy aloqalarning susayishi

[1] Yo‘ldoshev Q. “Badiiy asar tahlili”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. 56–70-betlar.
[2] Nazarov B. “O‘zbek nasrining rivojlanish tendensiyalari”. – Toshkent: Fan, 1983. 112-bet.
[3] Normatov U. “Ijod sirlari”. – Toshkent: Yozuvchi, 1983. 78–95-betlar.

dramatik kuch bilan tasvirlanadi. Aynan shu xususiyat – kichik detaldan yirik falsafiy umumlashuvga ko‘tarila olish qobiliyati – Nurmurodov ijodining asosiy belgilovchi jihatlaridan biridir.

Psixologizm – yozuvchi ijodining asosiy xususiyati. Adabiyotshunoslikda psixologizm [1] badiiy asarda qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy holati, o‘y-xayollari va hissiyotlarini chuqur hamda batafsil tasvirlash usuli sifatida baholanadi. Psixologizmning asosiy vositalari – ichki monolog, retrospeksiya (qahramon xotirasida o‘tgan voqealarni qayta tiklash), tush, ramziy detal va tabiat tasvirlari orqali ruhiy holatni aks ettirish hisoblanadi. Abdurashid Nurmurodov asarlarining asosiy badiiy xususiyatlaridan biri ham aynan kuchli psixologizmdir. E.Abdullayev ta’kidlaganidek, “o‘zbek nasrida psixologik tasvir usullarining rivojlanishi yozuvchining qahramonni ichkaridan ko‘rsatishga intilishi bilan bevosita bog‘liq”[2].

Nurmurodov asarlarida psixologik tasvir bir necha usulda amalga oshiriladi. Birinchidan, ichki monolog usuli: qahramon o‘z-o‘zi bilan muloqot qiladi, vijdoni bilan hisob-kitob ko‘radi. “Toshpo‘lat tajang nima deydiki...“ hikoyasida qahramonning o‘y-mulohazalari, ichki ziddiyatlari nafaqat harakat va dialoglar orqali, balki bevosita ong oqimi usulida uzatiladi. Ikkinchidan, retrospeksiya: qahramon o‘tmishini eslab, hozirgi holatini tushuntirishga urinadi. “Qon hidi” romanida Afg‘on urushi veteranining xotiralari matnning asosiy harakatlanuvchi kuchi vazifasini o‘taydi. Uchinchidan, ramziy-allegorik detal: “Bedana” hikoyasida qafasda saqlanayotgan bedana qush – erkinlikdan mahrum insonning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ramzi sifatida namoyon bo‘ladi[3].

Yozuvchi voqealarni shunchaki bayon qilmaydi, balki har bir voqeaning inson ruhiyatidagi in’ikosini, uning qalbida qoldirgan jarohatini ko‘rsatib beradi. U.Normatov adabiy mahorat haqida to‘xtalib: “Yozuvchining san’ati faqat voqeani bayon qilish emas, balki o‘quvchini o‘sha voqeaning ichiga, qahramonning qalbiga olib kirish qobiliyatidir” deb yozgan edi[4]. Aynan mana shu mahoratni Nurmurodov o‘z asarlarida to‘la namoyish etadi. U qahramonning kichik bir imo-ishorasi, so‘zga e’tiborsiz tuyulgan bir jumlasiga katta psixologik ma’no yuklaydi va shu yo‘l bilan portret yaratadi.

Adib asarlarida psixologizm va realizm tamoyillari o‘zaro chambarchas bog‘liq. Yozuvchi qahramonlarining ruhiy holati hech qachon hayotiy mantiqdan uzilmaydi – u doimo ijtimoiy-tarixiy sharoit, kundalik hayot tafsilotlari bilan uyg‘unlikda tasvirlanadi. Shu sababli Nurmurodovning asarlari bir vaqtning o‘zida ham chuqur psixologik, ham yorqin realistik nasrning namunasi hisoblanadi. Qo‘chqorovning badiiy mahorat masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotida ta’kidlanganidek, “badiiy asardagi psixologik tasvir o‘quvchida haqiqiy hayotiy kechinmani qayta boshdan kechirish hissini uyg‘otgandagina o‘z maqsadiga erishadi”[5].

Inson taqdiri va ichki kechinmalar tasviri. Abdurashid Nurmurodov asarlarida inson taqdiri ko‘pincha ijtimoiy-tarixiy fojialar fonida tasvirlanadi. Bunga yorqin misol sifatida yozuvchining “Urush bevalari” va “Qonli yo‘rgaklar” asarlarini keltirish mumkin. “Urush bevalari” qissasida Ikkinchi jahon urushida erlari halok bo‘lib, keyin bir umr turmush qurmay, marhum erlari xotirasi bilan yashagan onalarimizning urush ortidagi og‘ir, azobli hayot yo‘li qalamga olinadi[6]. Yozuvchi urush beva ayollarning qismatini shunchaki tarixiy fakt sifatida emas, balki millat taqdirining metonimiyasi sifatida tasvirlaydi.

---

[1] Quronov D. “Adabiyotshunoslikka kirish”. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. 143-bet.
[2] Abdullaev E. “Psixologik tasvir usullari o‘zbek nasrida”. – Toshkent: Fan, 1995. 34-bet.
[3] Abdullaev E. “Psixologik tasvir usullari o‘zbek nasrida”. – Toshkent: Fan, 1995. 67–89-betlar.
[4] Normatov U. “Ijod sirlari”. – Toshkent: Yozuvchi, 1983. 42-bet.
[5] Qo‘chqorov R. “Badiiy mahorat masalalari”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. 91-bet.
[6] Abdurashid Nurmurodov. “Urush bevalari” qissasi. Asarda Ikkinchi jahon urushida erlari halok bo‘lgan ayollarning hayoti tasvirlangan. Qarang: Nurmuradova D.B., 2022, 190-191-betlar.

Yozuvchi bu asarda ayol ruhiyatidagi sadoqat, matonat va ayni paytda cheksiz yolg‘izlik iztiroblarini psixologik tahlil qiladi. Taqdirning shafqatsiz zarbasiga uchragan bu ayollar tashqi jihatdan ojiz ko‘rinsa-da, ruhan nihoyatda kuchli insonlar sifatida gavdalanadi. Ularning ichki kechinmalari orqali butun bir xalqning urush davridagi fojiasi ochib beriladi. Muallif bu qahramonlarni bir-biridan farqlaydigan individual psixologik portretlari bilan tasvirlaydi: biri sukutda qotib qolgan, biri dardini xotiralarda qidiruvchi, biri esa hayotga ishtiyoqini yo‘qotmay kurashuvchi. Mana shu xilma-xillik asarni bir yoqlama sentimentallashdan saqlaydi va unga hayotiy ishonchlilik baxsh etadi.

“Ko‘hna dunyo” hikoyasida esa Nurmurodov insonning o‘z o‘tmishi, ildizi va xotirasi bilan munosabatini o‘rganadi. Qahramonning qarib qolgan otasi yashayotgan qishloqqa qaytishi – bu nafaqat jismoniy safar, balki o‘z-o‘zini kashf etish, unutilgan ma’naviy qadriyatlarga qaytish safariga aylanadi. Retrospeksiya bu asarda asosiy qurilma vazifasini o‘tagan holda, qahramon xotirasi orqali o‘tgan va hozirgi zamon o‘rtasidagi ko‘prik barpo etiladi. Yo‘ldoshevning badiiy asar tahlili metodikasiga ko‘ra, bunday konstruksiya “matn ichida parallel dunyolar yaratib, qahramonning ichki ziddiyatini kuchaytiradi”[1].

Nurmurodov insonning ijtimoiy muhit bilan ziddiyatini ham psixologik chuqurlik bilan tasvirlaydi. Uning qahramonlari ko‘pincha o‘zlarini yashayotgan jamiyatga mos kela olmayotgan, ammo bunga barham bera olmayotgan shaxslar sifatida gavdalanadi. “Odam bo‘lish qiyin” hikoyasidagi qahramon mana shu dramatik holatning timsoli: zamonaviy jamiyatning pragmatik qoidalari bilan o‘zining insoniyligi o‘rtasida ezilayotgan bir odamning o‘lik nuqtada qolish holati tasviri o‘quvchini larzaga soladi. I.Mirzayevning hozirgi o‘zbek hikoyachiligiga bag‘ishlangan tadqiqotida ta’kidlanganidek, “hikoya janrida insoniy ziddiyatning to‘la-to‘kis ochilishi ixcham, lekin chuqur psixologik tasvir vositasida amalga oshiriladi”[2].

Qahramonlar obrazi va ularning ruhiy dunyosi. Yozuvchi ijodida obraz yaratish muhim o‘rin egallaydi. Qahramonlar xarakteri chuqur psixologik tahlil asosida ochib beriladi. Masalan, “Qon hidi” romanida Afg‘on urushi qatnashchilari, ularning fojiali qismati va ruhiyati haqida so‘z boradi. Asar qahramonlari urushdan jismonan omon qaytgan bo‘lsalar-da, ruhan majruh bo‘lib qolgan insonlardir. Ularning burnidan “qon hidi” ketmaydi – bu urushning inson ruhiyatiga solgan mangu jarohati ramzidir[3]. Zamonaviy adabiyotshunoslikda bu hodisa “post-travmatik stressni badiiy talqin qilish” deb ataladi va Nurmurodov o‘zbek adabiyotida bu mavzuni eng dadil ko‘targan ijodkorlardan biridir.

Muallif qahramonlarining ruhiy dunyosini ochishda ularning tushlari, xotiralari va ichki monologlaridan unumli foydalanadi. Qahramon o‘z-o‘zi bilan, o‘z vijdoni bilan yuzma-yuz qolgan holatlar asarning eng ta’sirchan nuqtalari hisoblanadi. “Qonli yo‘rgaklar” romanida xalqning asrlar davomida shakllangan turmush tarzini oyoq osti qiluvchi kuchlarga qarshi bosh ko‘targan qahramonning ma’naviy holati aynan shu ichki monolog orqali namoyon bo‘ladi. Qahramon tashqi kuch bilan emas, birinchi navbatda o‘z qalbidagi kurash – itoat etish yoki qarshilik ko‘rsatish o‘rtasidagi ziddiyat – bilan kurashadi. Bu esa asarni oddiy tarixiy bayon darajasidan chiqarib, psixologik nasrning yuksak namunasi darajasiga ko‘taradi[4].

Nurmurodov qahramonlarining yana bir muhim xususiyati – ularning yaxshi-yomonlikka bo‘linmaydigan murakkab insonlar ekanligi. Yozuvchi an’anaviy ijobiy qahramon sxemasini buzadi: uning personajlari bir vaqtning o‘zida zaif ham, kuchli ham, aybdor ham bo‘lishi mumkin. Bu

[1] Yo‘ldoshev Q. “Badiiy asar tahlili”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. 134–148-betlar.
[2] Mirzayev I. “Hozirgi o‘zbek hikoyachiligi”. – Toshkent: Fan, 1977. 57-bet.
[3] Abdurashid Nurmurodov. “Qon hidi” romani. – Toshkent: Zabarjad media, 2020.
[4] Abdurashid Nurmurodov. “Qonli yo‘rgaklar”. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. 512-bet.

polisemantik xarakter yaratish uslubi Normatov va Rasulov tadqiqotida o‘zbek romanchiligining yuksalish alomatlari qatorida ta’kidlangan bo‘lib, Nurmurodov uni hikoya janriga ham tatbiq etishda muvaffaqiyat qozongan[1]. “Bedana” hikoyasida qafasdagi bedana bilan ozodlikka intilayotgan inson o‘rtasidagi allegorik munosabat o‘quvchiga bir nechta planda idrok etiladi: ekzistensial erkinlik masalasi, ma’naviy asirlik va uni anglashning og‘rig‘i.

Yozuvchi inson shaxsiyati va uning ruhiy dunyosini markazga qo‘yib, qahramonlarning orzu-intilishlari hamda hayotdagi murakkab vaziyatlardagi tanlovlarini badiiy jihatdan yuksak darajada tasvirlaydi. Qahramon portretini yaratishda Nurmurodov biografik detallar, nutq xususiyatlari, munosabat tizimi va boshqalar bilan bir qatorda eng kuchli vosita sifatida sukunatdan foydalanadi. Qahramonning ayta olmagan so‘zlari, yutib yuborgan hissiyotlari ko‘pincha gapirilgan so‘zlardan ko‘ra ko‘proq narsa aytadi. Bu “sukunat poetikasi” Nurmurodov uslubining o‘ziga xos belgisi bo‘lib, uni o‘zbek nasrining boshqa namoyandalari orasida ajratib turadi.

Konflikt va dramatik vaziyatlar talqini. Abdurashid Nurmurodov asarlaridagi konflikt (ziddiyat) faqatgina qahramonlar o‘rtasidagi tashqi to‘qnashuvlardan iborat emas. Asosiy konflikt – bu insonning o‘z ichki dunyosidagi, vijdoni va sharoit o‘rtasidagi ziddiyatdir. “Qonli yo‘rgaklar” romanida butun-butun xalqlar va millatlarning urf-udumlari, minglab yillik turmush tarzini tajovuzkorona poymol etishga urinish fojiasi ko‘rsatiladi[2]. Ushbu roman o‘zbek adabiyotidagi eng dramatik asarlardan biri sifatida baholanadi. Unda tarixiy fojia faqat tashqi hodisalar orqali emas, balki qahramonlarning ruhiy parchalanishi, hayotga bo‘lgan munosabatining izdan chiqishi orqali tasvirlanadi.

Dramatik vaziyatlar talqinida yozuvchi realizm tamoyillariga qat’iy amal qiladi. U voqealarni bo‘yab ko‘rsatmaydi, hayotning shafqatsiz haqiqatlarini boricha, o‘quvchini larzaga soladigan darajada realistik tasvirlaydi. Qahramonlar ko‘pincha yechimi yo‘qdek tuyulgan dramatik vaziyatlarga tushib qoladilar va aynan shu jarayonda ularning asl insoniy qiyofasi namoyon bo‘ladi. Karimov N. ta’kidlaganidek, “o‘zbek nasrida XX asrning ikkinchi yarmi konflikt tizimining murakkablashishi bilan ajralib turadi: tashqi ziddiyat o‘rnini tobora ko‘proq ichki, psixologik ziddiyat egallaydi”[3]. Nurmurodov ijodi bu tendensiyaning eng izchil namunasidir.

“Toshpo‘lat tajang nima deydiki...“ hikoyasida konflikt yanada nozikroq: ijtimoiy izolyatsiyaga uchragan bir inson o‘z muhitiga moslasha olish va o‘zliğini saqlab qolish o‘rtasidagi doimiy tanglik holatida tasvirlanadi. Qahramonning “tajang”ligi – aslida bu atrofdagi befarqlik va johillikka qarshi saqlanayotgan odamiylikning zohiri. Shu ma’noda Nurmurodov insonning ijtimoiy qiyofasini ham, ichki mohiyatini ham bir vaqtda ko‘rsatib, xarakter tahlilini yangi bosqichga olib chiqadi.

Urush mavzusidagi asarlarda dramatik ziddiyat uch qatlam kasb etadi: birinchi qatlam – tarixiy-ijtimoiy (urushning o‘zi); ikkinchi qatlam – shaxslararo (qahramonlar o‘rtasidagi munosabat); uchinchi qatlam – ichki-psixologik (qahramonning o‘z-o‘zi bilan kurashi). Nurmurodov uchala qatlamni mahorat bilan birlashtirib, yaxlit va chuqur dramatik qurilma yaratadi. “Qon hidi” romanida Afg‘on urushi fonida sobiq jangchi askar va uning atrofidagi tinch hayot odamlari o‘rtasidagi ziddiyat – bu shunchaki shaxsiy muammo emas, balki urushning jamiyatga solgan uzundan-uzoq jarohatining badiiy tasviridur. To‘xliyevning adabiyot darsligida qayd etilganidek, “badiiy asardagi ziddiyat o‘quvchini faqat qiziqtirib qolmaydi, balki uni hayotiy muammolarni anglashga undaydi”[4].

Badiiy til va uslubning o‘ziga xos jihatlari. Badiiy asarning ta’sirchanligi ko‘p jihatdan unda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalariga va yozuvchining til mahoratiga bog‘liq. Abdurashid

[1] Normatov U., Rasulov A. “O‘zbek romanining taraqqiyot bosqichlari”. – Toshkent: Fan, 1990. 203–218-betlar.
[2] Abdurashid Nurmurodov. “Qonli yo‘rgaklar”. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
[3] Karimov N. “O‘zbek adabiyoti tarixi” (6 tomlik). – Toshkent: Fan, 2006. 5-jild, 89-bet.
[4] To‘xliyev B. “O‘zbek adabiyoti”. – Toshkent: Sharq, 2005. 178-bet.

Nurmurodov asarlarining tili og‘ir, salmoqli, ammo nihoyatda ta’sirchan. Adabiyotshunoslar ta’kidlaganidek, uning asarlari “silliq o‘qilmaydi – bu tabiiy. Chunki undagi voqealar ham, ruhiy tahlillar ham o‘quvchidan jiddiy mushohadani talab qiladi”. Yo‘ldoshevning badiiy asar tahlili bo‘yicha asarida ta’kidlanganidek, “so‘z tanlovi, gap qurilishi va ritmik tuzilish – bularning barchasi badiiy asarning psixologik ta’sirini belgilovchi omillardir”[1]. Nurmurodov ushbu omillarning har birini mahorat bilan boshqaradi.

Yozuvchi asarlarida metafora, tashbeh, mubolag‘a kabi tasvir vositalari keng qo‘llaniladi. Masalan, tabiat tasvirlari shunchaki fon emas, balki qahramonning ruhiy holatini ifodalovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. “Ko‘hna dunyo” hikoyasida kech kuzning so‘lg‘in manzaralari qahramonning qalbidagi g‘am-hasrat bilan uyg‘unlashadi. “Urush bevalari”da esa bahordagi yangi o‘tlarning ko‘karishi beva ayollarning hayotini davom ettirishga bo‘lgan tirishqoqligini ta’sirchan tarzda ramziylashtiradi. Bu parallel tasvirlar tizimi Nurmurodov uslubining asosiy estetik qurilmalaridan birini tashkil qiladi[2].

Asarlarda xalqona iboralar, maqollar, topishmoq va rivoyatlardan foydalanish asarning milliy ruhini kuchaytiradi. Yozuvchi nafaqat zamonaviy adabiy tildan, balki Samarqand viloyatiga xos sheva so‘zlari va iboralaridan ham unumli foydalanadi – bu esa asarlarga haqiqiy hayot nafasini bag‘ishlaydi. Shuningdek, yozuvchi dialoglardan mahorat bilan foydalanadi; dialoglar qahramonlar xarakterini ochib berishda hamda voqealarni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Qahramonlar nutqida o‘ziga xos intonatsiya, leksik xususiyatlar va sintaktik tuzilmalar mavjud bo‘lib, bu har birini alohida individual shaxsiyat sifatida ko‘rsatadi.

Nurmurodov uslubining yana bir muhim xususiyati – kompozitsion mahorat. U voqealarni xronologik tartibda emas, balki retrospeksiya va prospeksiya texnikalarini navbatlashtirib tasvirlaydi. Bu usul o‘quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida matn bilan bog‘laydi. “Qonli yo‘rgaklar” romanidagi voqealar vaqt-makon o‘tishlarining murakkab tizimi orqali qurilgan bo‘lib, bu kompozitsion qaror asarning g‘oyaviy mazmunini yanada boyitadi. Mirzayev tomonidan ta’kidlanganidek, “kompozitsion qurilish badiiy asarda g‘oyaviy yukni ko‘taruvchi asosiy konstruktiv elementdir”[3].

Abdurashid Nurmurodov asarlarining adabiy jarayondagi o‘rni. Abdurashid Nurmurodov o‘zbek adabiyotining XX asr oxiri – XXI asr boshi davrida faoliyat ko‘rsatgan avlod vakili bo‘lib, bu davrda o‘zbek nasri katta ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar fonida yangilanish, o‘zlikni topish jarayonini boshdan kechirdi. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti o‘zining mavzu doirasini, badiiy tafakkur usullarini sezilarli darajada kengaytirdi. Nurmurodov ana shu jarayonning faol ishtirokchisi, yangilanishning ishtiyoqmand tarafdori sifatida maydonga chiqdi. Qosimov B. milliy uyg‘onish davri muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotida ta’kidlaganidek, “xalqning o‘z tarixiy xotirasini qayta kashf etish jarayoni adabiyotda birinchi navbatda aks etadi”[4]. Nurmurodov ijodi bu fikrning aniq tasdig‘idir.

Nurmurodovni zamondosh ijodkorlar – Nazar Eshmatov, Xurshid Do‘stmuhammad, Isajon Sulton, O‘tkir Hoshimov – bilan qiyoslasak, uning o‘ziga xos o‘rnini aniqroq ko‘rish mumkin. Agar O‘tkir Hoshimov o‘zbek hayotining lirik-romantik tabiatini kuylashga mo‘l bo‘lsa, Xurshid Do‘stmuhammad postmodern uslub tajribalariga qiziqish bilan qarasa, Nurmurodov o‘z yo‘lida qoldi: u realist yozuvchi sifatida ijtimoiy-psixologik romanchilik an’analarini saqlab, ularni yangi mavzular

[1] Yo‘ldoshev Q. “Badiiy asar tahlili”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. 98-bet.
[2] Qo‘chqorov R. “Badiiy mahorat masalalari”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. 118–130-betlar.
[3] Mirzayev I. “Hozirgi o‘zbek hikoyachiligi”. – Toshkent: Fan, 1977. 88-bet.
[4] Qosimov B. “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti”. – Toshkent: Manaviyat, 2002. 14-bet.

bilan boyitdi. Uning urush va fojiaviy tarix mavzularidagi asarlari o‘zbek nasrida maxsus tematik yo‘nalishni belgiladi[1].

Nurmurodov ijodini jahon psixologik nasrining keng kontekstida ham ko‘rish mumkin. Fyodor Dostoyevskiy, Lev Tolstoy, Ernest Xeminguey, Shukrullo, Abdulla Qodiriy singari ulug‘ so‘z ustalarining psixologizm an’analari uning ijodiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatgan. Nurmurodov o‘zbek adabiyoti uchun yangi bo‘lgan – urush psixologiyasi, post-travmatik ong, kollektiv xotira kabi konsepsiyalarni o‘zbek nasriga olib kirdi va shu yo‘l bilan milliy adabiyotimizni jahon adabiy jarayoni bilan yanada chuqurroq bog‘ladi. Normatov va Rasulovning o‘zbek romanchiligiga oid qo‘shma tadqiqotida ta’kidlanganidek, “o‘zbek romani jahon klassikasining badiiy tajribalarini o‘zlashtirish orqali o‘zining milliy xususiyatlarini yanada boyitib bordi”[2].

Nurmurodovning o‘zbek adabiy jarayoniga qo‘shgan eng muhim hissasi – urush mavzusini faqat qahramon buyukligi sifatida emas, balki insoniy fojia va ruhiy yaralar majmuasi sifatida talqin etishining yangi maktabini yaratishidir. Uning “Qonli yo‘rgaklar”, “Urush bevalari”, “Qon hidi” asarlari birgalikda o‘zbek adabiyotida “urush nasri” janrining original milliy modeli sifatida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Bu asarlar faqat o‘tmishni emas, urushning hozir ham tirik bo‘lgan ta’sirini – insonlar qalbidagi yaralarni, jamiyatning o‘zini – tasvirlaydi. Bugungi adabiy jarayonda Nurmurodov maktabidan ta’sirlangan yosh yozuvchilar avlodining paydo bo‘lishi uning ijodiy merosining davomiyligidan dalolat beradi.

Xulosa

Abdurashid Nurmurodov ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘zining chuqur psixologizmi, inson taqdiriga bo‘lgan yuksak e’tibori va realistik tasvir uslubi bilan muhim o‘rin egallaydi. Uning asarlarida realizm, hayotiylik, chuqur psixologik tasvir va milliy qadriyatlar uzviy uyg‘unlashgan. Maqolamizda tahlil qilingan “Urush bevalari”, “Qonli yo‘rgaklar”, “Qon hidi”, “Odam bo‘lish qiyin”, “Bedana”, “Toshpo‘lat tajang nima deydiki...“, “Ko‘hna dunyo” kabi asarlar bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit badiiy dunyo sifatida namoyon bo‘ladi. Karimovning o‘zbek adabiyoti tarixiga oid fundamental tadqiqotida ta’kidlanganidek, “yozuvchining badiiy dunyosi – bu uning insoniyatga bo‘lgan munosabatining bevosita ifodasi”dir[3].

Yozuvchi inson ruhiyati va jamiyat muammolarini, xususan, urushning inson qismatiga solgan ayanchli ta’sirini badiiy jihatdan yuksak mahorat bilan tasvirlab, o‘quvchini chuqur mushohada yuritishga undaydi. Uning asarlarida psixologizm faqat texnik usul emas, balki insonni va insoniyatni tushunishning falsafiy yo‘li hisoblanadi. Ichki monolog, retrospeksiya, ramziy detal, tabiat parallelizmi – bularning barchasi Nurmurodovda yaxlit estetik tizimni tashkil qiladi. Bu tizim esa o‘quvchini qahramonning ichki dunyosiga olib kiradi va uni o‘sha dunyoning ishtirokchisiga aylantiradi.

Abdurashid Nurmurodov yaratgan qahramonlar – taqdirning og‘ir sinovlarida toblangan, ruhan majruh bo‘lsa-da, insoniylik qiyofasini yo‘qotmagan shaxslardir. Ular o‘zbek adabiyotining qahramon galereyasida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Ular na mutlaq yaxshi, na mutlaq yomon – ular hayotiy, murakkab, qiyinliklardan ezilgan, lekin shu qadar tirik insonlar. Mana shu “tiriklik” – Nurmurodov ijodining eng katta fazilati. Nazarovning o‘zbek nasrining rivojlanish tendensiyalariga oid tadqiqotida “yozuvchi mahoratining cho‘qqisi shundaki, u o‘z qahramon qalbini o‘quvchi qalbiga ulashga qodir bo‘lsin” deb yozgan edi[4]. Nurmurodov aynan shu cho‘qqiga erishgan ijodkordir.

[1] Normatov U. “Ijod sirlari”. – Toshkent: Yozuvchi, 1983. 165–180-betlar.
[2] Normatov U., Rasulov A. “O‘zbek romanining taraqqiyot bosqichlari”. – Toshkent: Fan, 1990. 11-bet.
[3] Karimov N. “O‘zbek adabiyoti tarixi” (6 tomlik). – Toshkent: Fan, 2006. 1-jild, 8-bet.
[4] Nazarov B. “O‘zbek nasrining rivojlanish tendensiyalari”. – Toshkent: Fan, 1983. 198-bet.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, Abdurashid Nurmurodov ijodi o‘zbek adabiyotshunosligida hali to‘liq o‘rganilmagan. Uning asarlari xarakter tipologiyasi, konflikt tizimi, kompozitsion mahorat, til va uslub xususiyatlari nuqtai nazaridan alohida monografik tadqiqotlarga muhtoj. Shuningdek, yozuvchi ijodini jahon urush nasri kontekstida qiyosiy o‘rganish ham katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola Nurmurodov ijodini kompleks o‘rganish yo‘lidagi dastlabki urinishlardan biri sifatida, keyingi tadqiqotlar uchun zamin hozirlashni maqsad qilib qo‘ygan. Yozuvchining badiiy merosi – bu milliy adabiyotimizning faxr-ifxori, kelajak avlodlar uchun beqiyos ma’naviy xazina.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurashid Nurmurodov. Qonli yo‘rgaklar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 512 b.
2. Abdurashid Nurmurodov. Qon hidi (roman). – Toshkent: Zabarjad media, 2020. – 384 b.
3. Abdurashid Nurmurodov. Urush bevalari (qissa). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 128 b.
4. Abdurashid Nurmurodov. Nurafshon yog‘du (roman). Elektron kutubxona manbasi (Ziyouz.com).
5. Abdurashid Nurmurodov. Tutash taqdirlar; Tazarru; Bolalikka otilgan o‘q (qissalar). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 256 b.
6. Karimov, N. va boshq. O‘zbek adabiyoti tarixi (6 tomlik). – Toshkent: Fan, 2006. 1–6-jildlar.
7. Nazarov, B. O‘zbek nasrining rivojlanish tendensiyalari. – Toshkent: Fan, 1983. – 216 b.
8. Normatov, U. Ijod sirlari. – Toshkent: Yozuvchi, 1983. – 224 b.
9. Normatov, U., Rasulov, A. O‘zbek romanining taraqqiyot bosqichlari. – Toshkent: Fan, 1990. – 280 b.
10. Qo‘chqorov, R. Badiiy mahorat masalalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – 184 b.
11. Mirzayev, I. Hozirgi o‘zbek hikoyachiligi. – Toshkent: Fan, 1977. – 148 b.
12. Yo‘ldoshev, Q. Badiiy asar tahlili. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – 312 b.
13. Abdullaev, E. Psixologik tasvir usullari o‘zbek nasrida. – Toshkent: Fan, 1995. – 192 b.
14. Qosimov, B. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 336 b.
15. To‘xliyev, B. O‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Sharq, 2005. – 448 b.
16. Quronov, D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. – 268 b.
17. Yo‘ldoshev, Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 256 b.
18. Nurmuradova, D.B. “Abdurashid Nurmurodovning “Urush bevalari” va “Qonli yo‘rgaklar” asarini o‘qib”. Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU, 2022. – B. 190–192.

MUNDARIJA

	I SHO‘BA. TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI	
1.	**Zuhriddin ISOMIDDINOV**. Bizdagi tarjima muammolari	5
2.	**Uzoq JO‘RAQULOV**. O‘zbek tarjimachiligi istiqbollari	9
3.	**Xurram RAHIMOV**. Alisher Navoiyning “Munojot” asari tarixi, tabdili va tarjimalari xususida	14
4.	**Олимджон КАСИМОВ, Мартаба СУЛТОНЗОДА.** Некоторые лингвистические особенности перевода лексем «Шахнаме» на русский язык	17
5.	**Ne’matilla OTAJONOV**. Eiji Mano – boburshunos olim	22
6.	**Rukhsana IFTIKHAR**. Beautification of Mughal women	26
7.	**Наталья ФИЛИМОНОВА**. Возможности перевода при работе иностранных учащихся с художественным текстом: начальный этап изучения русского языка	30
8.	**Kosimboy MAMUROV**. Nargiza TILAKOVA Functional syntax and mystical semantics: correlating syntaxemes with sufi concepts in Alisher Navai’s Uzbek and English ghazals	34
9.	**Xayrulla HAMIDOV**. Muslimbek Yo‘ldoshevning tarjimonlik mahorati	38
10.	**Ирода СИДДИКОВА**. К вопросу взаимосвязи психолингвистики и художественного перевода	43
11.	**Xayrulla HAMIDOV, Zulfizarxon QORAXO‘JAYEVA**. Nafisiyning “Jannatning yarim yo‘lida” asaridagi personaj portretining tarjimada berilishi	46
12.	**Абдумажид МАДРАИМОВ, Аскарий МАДРАИМОВ**. Вопросы перевода научного наследия Захириддина Мухаммада Бабура и традиция перевода в библиотеке Акбара в XVI веке	51
13.	**Supriya BANERJEE**, **Iroda UMAROVA** Reimagining classics: Tagore, translation and the global reader	54
14.	**Ziyodaxon TESHABOYEVA**. “Boburnoma”da milliy-madaniy xususiyatli til birliklar va ularning inglizcha tarjimalari	58
15.	**Zulkhumor MIRZAEVA**. Politics under the mask of poetics: Chulpon’s translations in the 1920s-1930s	62
16.	**Abdumajid MAMADALIYEV**. Badiiy matn tarjimasida milliy koloritni ifodalash muammosi	72
17.	**Muhammadjon ABDUVALIYEV**. Sinxron tarjimashunoslikning zamonaviy masalalari	74
18.	**Мұратбек БАҒИЛА, Кәмшат АЙМАҒАМБЕТОВА**. Қазақ тілін оқыту әдістемесінің жаңа парадигмалары	80
19.	**Shermurod SUBHON**. Ijodiy kengashlarda	84

193.	**Гулсевар САИДОВА**. Языковые особенности творчества А. С. Пушкина и их использование в преподавании ТРКИ	846
194.	**Садокат ОЛИМЖОНОВА**. Изучение творчества А. С. Пушкина в преподавании русского языка как иностранного	853
195.	**Sokina IRISBAYEVA**. Moral and ethical values in Uzbek and English proverbs: a comparative study	860
196.	**Музаффар ХОДЖАХАНОВ.** Структурный и синтаксический анализ терминов статистики в английском и русском языках	864
197.	**Shaxnozabonu NEMATOVA.** The Interconnection Between Gender and Language: A Historical and Sociolinguistic Perspective	866
198.	**Мохира ЭШКУВАТОВА.** Роль грамматического комментария в преподавании русского как иностранного	870
199.	**Nazokat G‘offorova.** Zulfiya she’rlari tarjimasida metaforalar tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlari	873
200.	**Адолат Бобо-Хожаева**. Тюркские заимствования в русском языке: пространство билингвизма и историческая перспектива	877
201.	**Жарылқасын Қалдықыз**, **Мадетханқызы Аружан**. Ayşa Bibi Türbesi: Mimari Ve Maneviyatin Kesişim Noktasi	880
202.	**Guljahon Xo‘jayeva.** Qadimiy epik an’analar va tarixiy roman poetikasining uzviyligi	889
203.	**Dilovar Nurmuradova.** Abdurashid Nurmurodov ijodida psixologizm va inson taqdiri talqini	897
204.	**Shohida Mo‘minova.** Badiiy obrazning estetik tabiati va bolalar adabiyotidagi talqini masalalari	905